

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024 1-SON
ILOVA TOPLAM: GEOGRAFIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Y.I.Ahmadaliyev, X.A.Abduveiyev	
Hududiy tashkil etishning ba'zi nazariyalarida aholi omilining o'rni va ahamiyati	6
K.M.Boymirzayev, I.K.Mirzahmedov	
Landshaftlar vertikal tabaqlanishini matematik modellashtirish.....	15
Q.S.Yarashev, B.B.Yusupov	
Ekoturizim resurslardan oqilona va samarali foydalanishning ayrim masalalari (Dehqonobod tumani misolida)	22
T.J.Jumayev, Sh.B.Qurbanov, K.O.Daljanov	
Tog'li hududlarda qishloq xo'jaligini rivojlantirish va hududiy tashkil etishning ba'zi masalalari	30
O.T.Mirzamahmudov	
Farg'ona vodiysi adir agrolandshaftlari va ularni joylashtirish yo'llari	36
O.M.Qo'ziboyeva, Z.Sherbayeva	
Janubiy Farg'ona daryolarining suv rejimiga iqlim o'zgarishining ta'siri	41
G.X.Xolbayev, X.T.Egamberdiyev	
Xavfli meteorologik hodisalarining takrorlanuvchanligini baholash (Farg'ona viloyati misolida) ..	45
Sh.Z.Jumaxanov, Sh.Sh.Zoirjonov	
Aholi xulq-atvorining etnolingvistik xususiyatlarini sotsiologik so'rovlar asosida o'rganish	54
R.Y.Xoliqov	
Farg'ona vodiysi paragenetik landshaftlari o'ttasidagi geokimyoiy migratsion jarayonlarning geoekologik muhitga ta'siri.....	61
K.M.Boymirzayev, I.K.Mirzahmedov	
Landshaftlarning antropogen modifikatsiyalanishi va ularning tadqiq etishning ilmiy-nazariy masalalari.....	64
Y.I.Ahmadaliyev, O.I.Abdug'aniyev, J.G'.Eminov	
Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimining reprezentativligi va samaradorligini baholash	68
D.G'.Mo'minov, O.Q.Tobirov	
Farg'ona viloyati ekoturistik imkoniyatlarini baholashning bazi jihatlari	81
K.M.Xakimov	
Antroponomik model: milliy familiya va uning zaruriyati haqida	87
Y.B.Raxmatov	
Buxoro viloyatining cho'l xududlarida suvdan samarali foydalanishning geografik muammolari	93
R.T.Pirnazarov	
Shohimardonsov havzasida turizmni rivojlantirishning tabiiy geografik imkoniyatlari	96
P.R.Qurbanov	
Janubiy O'zbekistonda urbanizatsiya rivojlanishining sotsial jihatlari.....	103
H.A.Oblaqulov, Y.R.Buranov, M.Sh.Qo'ziyeva	
Navoiy viloyat aholisining dinamikasi va hududiy joylashuvi	113
Z.X.Madaminov	
Iste'mol geografiyasi fani, uning rivojlanishi, iste'mol savatchasi tushunchasi va uni tadqiq qilish	118
E.G'.Mahkamov	
Farg'ona vodiyisida turistik-rekreatsion faoliyatni tashkil etishni takomillashtirish yo'naliishlari.....	122
Z.A.Temirov	
Mehnat resurslari va iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi o'ttasidagi hududiy muammolarni geografik o'rganish.....	128
M.M.Avezov, A.M.Elmurotova	
Kattaqo'rg'on tumanining geologik va orografik tuzilishiga umumiyl tabiiy geografik tavsif	135
M.R.Usmanov	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar.....	140

**AHOLI XULQ-ATVORINING ETNOLINGVISTIK XUSUSIYATLARINI SOTSILOGIK
SO'ROVLAR ASOSIDA O'RGANISH**

**ИЗУЧЕНИЕ ЭТНОЯЗЫКОВЫХ ХАРАКТЕРИСТИК ПОВЕДЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ НА
ОСНОВЕ СОЦИОЛОГИЧЕСКИХ ВОПРОСОВ**

**STUDYING ETHNO-LANGUAGE CHARACTERISTICS OF POPULATION BEHAVIOR
BASED ON SOCIOLOGICAL SURVEYS**

Jumaxanov Shavkatjon Zairjonovich¹

¹Namangan davlat universiteti geografiya kafedrasi dotsenti, g.f.d. (DSc)

Zoirjonov Shaxbozbek Shavkatjon o'g'li²

²Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada aholi xulq-atvorining etnolingvistik va psixolingvistik xususiyatlarini sotsiologik so'rovlar asosida o'rganilgan va tegishli xulosalar olingan. Sotsiologik so'rovnomasi docs.google platformasi orqali IT texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshirilgan.

Аннотация

В данной статье на основе социологических опросов изучены этнолингвистические и психолингвистические особенности поведения населения и сделаны соответствующие выводы. Социологический опрос проводился с использованием IT -технологий через платформу docs.google.

Abstract

In this article, the ethnolinguistic and psycholinguistic characteristics of the population's behavior were studied on the basis of sociological surveys and relevant conclusions were drawn. The sociological surveys was carried out using IT technologies through the docs.google platform.

Kalit so'zlar: xorijiy tillar, etnolingvistika, psixolingvistika, folklor, til o'rganish muhiti, sotsiologik so'rovnomasi, respondent, etnomadaniyat.

Ключевые слова: иностранный язык, этнолингвистика, психолингвистика, фольклор, языковое образование, социологическое исследование, респондент, этнокультура.

Key words. foreign languages, ethnolinguistics, psycholinguistics, folklore, language learning environment, sociological survey, respondent, ethnoculture.

KIRISH

Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatishni ta'lrim siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida rivojlantirish, ushu yo'nalishda ta'lrim sifatini tubdan oshirish, sohaga malakali pedagoglarni jalg'etish hamda aholining xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish borasida tizimli choratadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu boisdan, turli soha mutaxassislari o'z ona tilini mukammal bilish bilan bir qatorda, bir nechta xorijiy tillarni bilishi va muloqot qila olishi maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil 19-maydag'i "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi tashkil etildi [1]. Bular o'z navbatida xorijiy tillarni o'rganish bilan bog'liq muhitni shakllanishida muhim hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda keyingi yillarda chet tillar bilan birgalikda ona tilini o'rganishga alohida e'tibor berilmoqda. Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: Bolalarimiz maktabdan ona tili va chet tillarini puxta o'zlashtirib, kompyuterda ishlashni o'rganib chiqishi zarur. Farzandlarimizni kasb-hunarlarg'a, san'at va madaniyatga qiziqtirishimiz lozim va shu orqali o'quvchilarda erkin va kreativ fikrlashni, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish zarur [2].

Bugungi kun – globallashuv davridir. Bu davr insoniyatning zamon bilan hamnafas odimlashini talab etadi. Shu boisdan, turli soha mutaxassislari o'z ona tilini mukammal bilish bilan bir qatorda, bir nechta xorijiy tillarni bilishlari va muloqot qila olishlari maqsadga muvofiq. Buning uchun xorijiy tillarni o'rganish va o'qitish tizimini yanada zamonaviy metodlar bilan takomillashtirish hamda chet tillarini o'rganishga bo'lgan motivatsiyani oshirish nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi.

Internet saytlarida xorijiy tillarni o'rganishga bag'ishlangan "Inglizcha – dunyoning sevimli tili bo'lib qola oladimi?", "Chet tili – faqat ingliz tilimi?" sarlavhalari ostida yozilgan bir nechta ilmiy va

ilmiy-ommabop maqolalarda mualliflar xorijiy tillarni o'qitish faqatgina ingliz tili bilan cheklanib qolishi kerak emasligiga urg'u beradilar.

Darhaqiqat, xorijiy tillar deganda ko'z o'ngimizda barcha chet mamlakat tillari namoyon bo'lsa-da, afsuski, mamlakatimizda mактабгача va umumiyl о'rtа та'lіm tizimida bu borada oqsash yaqqol seziladi. Negaki, deyarli davlat tasarrufidagi barcha о'rtа maktablarda shu kunga qadar asosan ingliz tili chet sifatida о'rgatib kelinmoqda edi. Biroq, Prezidentimiz tashabbusi bilan bugungi kunda ta'lіm muassasalari, tarmoqlar va hududlarning ehtiyojidan kelib chiqib, kamida 10 ta chet tilini – ingliz, rus, nemis, fransuz, xitoy, koreys, yapon, turk, arab, fors tillarini о'rgatishni tashkillashtirishdek dolzarb masala kun tartibiga qo'yilgan [4]. Qolaversa, Namangan viloyatida tashkil etilgan Ishaqxon Ibrat nomidagi xorijiy tillar maktabi, Namangan davlat chet tillari instituti kabilar ham xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatish borasidagi islohotlarning bir namunasidir.

Ma'lumki, tilning juda ko'p funksiyalari mavjud bo'lib, oddiygina kommunikativ (muloqot vositasi) vazifasidan tashqari, madaniy, psixologik, ijtimoiy funksiyalari ham borki, bu ikkinchi tilni o'rganayotgan shaxslarning hayot tarzi, dunyoqarashi, fikrlashiga, jamiyat intilish, xohishlarining namoyon bo'lishi demakdir. Shu jihatdan xorijiy tillarni o'rganish motivlari, psixologik omillari va natijalari butun bir xalqning kelajak yo'llarini ham ko'rsatib turadi. Bu bejiz emas albatta. Chunki aholi xulq atvori hamda til va madaniyat masalarini o'rganishda muammolar ko'p. Bu muammolarni o'rанишда ijtimoiy fikrni to'g'ridan-to'g'ri o'rganishga qaratilgan sotsiologik usullarning ahamiyati ancha katta [3, -c.212].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur maqolani yoritishda lingvistik tavsiflash, sotsiologik so'rov, hududiylik, tarixiylik, komplekslilik, demotsentrik, qiyosiy tahlil, muammoga sivilizatsion yondashuv singari usullaridan foydalaniłgan. Shuningdek, G'arbning, MDH va o'zbek yetakchi olimlarining o'zbek xalqi etnografiyasi, etnolingvistikasi va etnopsixologiyasi masalalariga oid tadqiqot ishlaridan unumli foydalaniłgan.

Mazkur sotsiologik tadqiqotda: etnik-lingvistik, an'anaviy-madaniy qarashlar, xorijiy tillarni (ingliz, nemis, fransuz, arab va rus) o'rganishni umumiyligi, madaniyat va psixikaning xususiyatlari, guruh birligining o'zini o'zi anglashi haqidagi umumiyl g'oyalar bilan bog'liq. Bugungi kunda murakkab kompleks fan –lingvoethnosotsiologiya (L.B.Nikolskiy atamasi) paydo bo'ldi, va u nafaqat etnik guruhning milliy, xalq, jamoaviy xususiyatlarini, balki ma'lum bir etnik guruhning (jamiyatning) va etnik guruhlarning (jamiyatning) ijtimoiy tuzilishining xususiyatlarini, umuman olganda, uning rivojlanishining so'nggi bosqichida o'rganadi.

Boshqacha qilib aytganda, etnolingvistika hozirda ikki xilda idrok etilmoqda: birinchisi tor ixtisoslashgan ma'noda etnolingvistika dialektologiya, folklor tili va til tarixinining tarixiy dialektologiya va madaniyat bilan bog'liq qismini, ikkinchisi keng ma'noda xalqning etnik tarixi, ya'ni ijtimoiy hodisa sifatida til o'rganishning deyarli barcha jihatlari qamrab oladi [7, -S. 157].

Etnolingvistikaning uslubiy metodlarini aniqlash uchun uning shakllanishining kelib chiqishi va shakllanishiga murojaat qilish lozim bo'ladi. Uchta davlat (Germaniya, Rossiya va AQSH) etnolingvistika deb ataladigan yo'nalişning vatani – "beshigi" bo'lgan. Binobarin, Germaniyada, etnolingvistik g'oyalar V.fon Gumboldt asarlarida, uning til haqidagi ta'lomi xalq ruhining diqqat markazida va ifodasi sifatida paydo bo'lgan.

XIX asrning o'talariga kelib folklor, xalq madaniyatni va mifologiyasiga romantik ishtiyoq hukmronlik qilgan Rossiyada paydo bo'lgan etnolingvistika etnografik xususiyatini xalqning ma'naviy va moddiy madaniyatiga aniq qiziqish bilan qabul qildi.

Hindlarning ko'plab qabilalari yozuvga ega bo'Imagan va mahalliy tillar, urf-odatlar va afsonalarni o'rganish an'analariga ega bo'Imagan Amerikada tilshunoslar va etnograflarning sa'y-harakatlari Yevropaga o'xshamaydigan tilni, fikrlashni, mahalliy madaniyatni va uning namoyon bo'lishining barcha shakllarini tafsiflash usullarini ishlab chiqishga qaratilgan edi [8, -S. 120-121].

Darhaqiqat, etnolingvistika va etnomadaniyat bilan bog'liq tadqiqotlar O'zbekiston mintaqalarining o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda olib borilgan jumladan; H.R.Allayeva [9]. "Quyi Surxondaryo mikrotoponimiyasining lingvistik tadqiqi", A.A.Abdullayev [10]. "Joy nomlarining etnomadaniy tadqiqi (Toshkent areali misolida)", D.T.Norqulov [11]. "Til xususiyatlari va etnolingvistik o'zgarishlari. O'zbekiston arablari", K.M.Zayrova [12]. "Qoraqalpak tilidagi kiyim va moyabal nomlarining etnomadaniy xususiyatlari" bo'yicha tadqiqotlar olib borgan bo'lsalar, mazkur tadqiqot yuqoridaqilardan farqli o'laroq etnolingvistik muhitni baholash faoliyati aniqlashtirishga qaratilgan sotsiologik so'rovlar asosida o'rganilganligi bilan ajralib turadi.

Shuningdek, etnolingvistikaga oid qimmatli ma'lumotlar tarix, dialektologiya, onomastikaga oid ishlarda ham tarqoq holatda kuzatiladi.

TADQIQOTNING MAQSADI VA VAZIFALARI

Olib borilgan tadqiqot ishning asosiy maqsadi O'zbekiston hududlari aholisining xulq atvori va etnolingivistik xususiyatlari borasidagi fikrlari sotsiologik usullar orqali o'r ganib, mavjud muammolarini aniqlash va ularni yechish yo'llarini belgilashdan iborat. Qo'yilgan maqsadni amalga oshirish uchun dastlab quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- O'zbekiston hududlarida aholi xulq atvori va etnolingivistik xususiyatlarini sotsiologik izlanishni olib borish uchun maxsus ilmiy adabiyotlardan anketa-so'rov tadqiqot usulini qo'llash tartibi bilan tanishish;
- tadqiqotni olib borish uchun O'zbekiston OTMlarda ta'lif olayotgan talabalarning (geografiya, tarix, iqtisod, ingliz, o'zbek va rus filologiyasi) til va madaniyat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislar (respondentlar) uchun anketa-so'rovi savollarini shakllantirish;
- sotsiologik so'rovni maxsus platformada (<https://forms.gle/CciHsCSmhKy3gKh7>) utkazish;
- respondentlardan so'rovnomada mobaynida olingan fikrlarni jamlash, qayta ishlash va tegishli xulosalarni shakllantirish.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Hozirgi sharoitda ijtimoiy-iqtisodiy hayot hamda uning alohida sohalarining zamonaviy holatini ochib berishda sotsiologik tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega. Chunki sotsiologik so'rovlar orqali o'rganilayotgan jarayonning bevosita qatnashchilari bilan uzviy bog'lanish imkoniyati yaratiladi. Tadqiqot yakunida respondentlarning fikrlari jamlanadi, qayta ishlanadi, umumlashtiriladi va ular asosida tegishli xulosalar qilinadi.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, anketa-so'rovi o'tkazish asosan ikki holatda amalga oshiriladi, ya'ni: 1) o'rganilayotgan hodisa xususida ma'lumotlar yetishmasa yoki olingan natijalarini to'ldirish, mustahkamlash zarurati tug'ilgan bo'lsa; 2) ijtimoiy hodisalarning sabablari, rivojlanishi va istiqboli yuzasidan muayyan aholi guruhi (respondentlarning) fikr va munosabatlarini o'rganish lozim bo'lgan holatlarda o'tkazish yoki tadqiqot olib borish mumkin [13, -P.12].

Etnolingvistik vaziyatni o'rganish maqsadida tuzilgan ilmiy tadqiqot ishi so'rovnomasida O'zbekiston aholisi etnolingvistik vaziyati holati, muammo va istiqbollarini baholash maqsadida mualliflar tomonidan 2022-yilning 6-oktabrdan 31-oktabrgacha bo'lgan muddatda hududlardagi oliy ta'lif muassasalari talabalari ishtirokida maxsus sotsiologik tadqiqotlar olib borildi. Tadqiqot doirasida NamDU, ADU, FarDU, TTA, SamDU TerDU, QarDU, JizDPU talabalar va tayanch doktorantlar, professor-o'qituvchilardan iborat bo'lgan 310 nafar respondentlar o'tasida anketa-so'rov o'tkazildi. Shuningdek, so'rovnomada ishsiz yurgan shaxslar ham ishtirok etgan.

Anketa 16 ta savoldan iborat, shuningdek, unda respondentlarning ma'lumoti, millati, lavozimi, til bilish sertifikatining mavjudligi va etnolingvistik muhitni baholash faoliyati aniqlashtirishga qaratilgan savollar ham joy olgan.

So'rovnomada ishtirok etgan respondentlardan 172 nafari 55,5 foizi erkaklar, 138 nafari yoki 44,5 foizi ayollarni tashkil etgani holda, ularning 205 nafari oly (66,2 foiz), 60 nafari o'rta-maxsus (19,3 foiz), 45 nafari (14,5 foiz) o'rta ma'lumotga ega. So'rovnomada ishtirok etgan respondentlarning yosh tarkibi quyidagicha: 136 nafari (44 foiz) 20 yoshgacha, 115 nafari (37 foiz) 30 yoshgacha, 37 nafari (12 foiz) 40 yoshgacha, 22 nafari (7 foiz) 50 yosh va undan kattalarni tashkil etdi. So'rovnomada ishtirok etgan respondentlarning milliy tarkibi 280 nafari o'zbek, 9 nafar tojik, 4 nafar qirg'iz, 3 nafar qozoq, 1 nafar qoraqalpoq, 11 nafari esa boshqa millat vakillariga to'g'ri kelgan.

Sotsiologik so'rovda ishtirok etgan respondentlarning lavozimi haqidagi 3-savolga so'rovnomada ishtirok etganlarning (23,0 foiz) o'qituvchi, (4,0 foiz) ilmiy darajali xodimlar, (3,5 foiz) magistrlar, (26,1 foiz) talabalar, (1,0 foiz) tibbiyot xodimi, (1,0 foiz) muxandis, (1,0 foiz) qishloq xo'jaligi xodimi, (8,4 foiz) ishsizlarni tashkil etgan. Biroq so'rovnomada ishtirok etganlarning 36,1 foiz mazkur savolga javob berishmagan.

O'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar davomida olingan respondentlarning javoblar tahlilida asosiy e'tiborni aholining chet tillarni bilish darajasi, til muhitini shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy omillar hamda aholining kelajakda til bilish darajasini baholash bilan bog'liq vazifalarga qaratildi.

Etnolingvistik vaziyatni aniqlovchi so'rovnomanining (maksimal o'n ballik ko'rsakichda baholangan) "Siz o'zingiz yashab turgan hudud, ta'lif muassasasi yoki ishxonadagi xorijiy (MDH

davlat tillaridan boshqa) tillarni bilish darajasini (ingliz, nemis, fransuz, koreys) qanday baholaysiz?" degan 4-savoliga respondentlarning 30 nafari yoki 9,7 foizi "bir ball", 23 nafari yoki 7,4 foizi "ikki ball", 74 nafari yoki 23,8 foizi "uch ball", 64 nafari yoki 20,6 foizi "to'rt ball", 77 nafari yoki 24,8 foizi "besh ball", 16 nafari yoki 5,1 foizi "olti ball", 26 nafari yoki 8,4 foizi "yetti ball", holatda deb javob bergen bo'lsa, 8-9-10 ball talabiga javob beradigan ta'lif muassasi yoki ishxonadagi xorijiy (MDH davlat tillaridan boshqa) tillarni bilish darajasini (ingliz, nemis, fransuz, koreys) yo'q ekanligini ko'rish mumkin.

"Sizni xorijiy tillarni o'rganishdan asosiy maqsadingiz nima?" - degan 5-savolga respondentlarning 76 nafari yoki 24,5 foizi "Rivojlangan davlatlar madaniyati va urf-odatlarini o'rganish", 63 nafari yoki 20,3 foizi "Taraqqiy etgan xorijiy mamlakatlarga ishlash uchun borish", 171 nafari yoki 55,2 foizi "xorijiy mamlakatlarning oliyoholarida ta'lif olish maqsadida" o'rganayotganlini tasdiqlovchi javoblarini berishgan.

Ayni paytda "Sizda til bilish darajasi sertifikati bormi? Agar bo'lsa qanday darajada?!" – deyilgan 6-savolga respondentlarning 250 nafari yoki 80,6 foizi til bilish darajasi sertifikatiga ega emasligi, til o'rganishda muammolar (moliyaviy qiyinchiliklar, yaxshi mutaxassislarini yetishmasligi, mavjudlarining darajasi yaxshi emasligi, til o'rgatish markazlari asosan shahar markazlarida joylashganligi, transport xarajatlarining ko'pligi, til o'rgatish kurslarining qimmatligi) ma'lum qilgan bo'lsa. So'rvonomada ishtirok etgan respondentlarning 15 nafari yoki 5,0 foizi esa 4,5-5 ball (B1 daraja) ga, 28 nafar yoki 9,03 foiz respondent 5,5-6,5 ball (V2 daraja) ga, 16 nafari yoki 5,02 foiz respondent 7,0-8,0 ball (S1 daraja) ga, atigi 1 nafar respondent yoki 0,3 foiz 8,5-9,0 ball (S2 daraja) sertifikatiga ega ekanligini ko'rish mumkin.

Ushbu ko'rsatkich bo'yicha Qozog'iston bilan taqqoslansa, xalqaro IELTS imtihonidagi umumiyl ball bo'yicha Janubiy Koreya, Xitoy, Yaponiya va O'zbekistondan oldinda. Bundan tashqari, Qozog'iston Respublikasi TOEFL iBT bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlari orasida so'ngi uch yil ichida eng yaxshisi bo'lgan. Jumladan, 2019 yilda xalqaro IELTS imtihonida aholining o'rtacha balli 9,0 balldan 6,1 ballni tashkil qildi. Til ko'nikmalari turlari orasida qozog'istonliklar o'qish va tinglash (har biri 6,3 ball) bo'yicha eng yuqori natijalarini ko'rsatmoqda, ular nutqda (6,0) va yozishda (5,6 ball) biroz zaifroq. Shu bilan birga, Qozog'iston xalqaro IELTS imtihonidagi umumiyl ball bo'yicha Koreya (6,0), Xitoy (5,8), Yaponiya (5,8), O'zbekiston (5,7) va boshqa ko'plab davlatlarni ortda qoldirdi. [4]. Demak, dunyoning ko'plab davlatlarida aholining til o'rganishga bo'lgan istaklari ortib borishini kuzatish mumkin.

Respondentlarning xorijiy tillarni o'rganish istaklari bilan bog'liq "Yana qaysi xorijiy tillarni o'rganishni xohlar edingiz?", – degan 7-savolga ishtirokchilarning 72 nafari yoki 23,2 foizi ingliz tili, 52 nafari yoki 16,8 foizi rus tili, 48 nafar yoki 15,5 foizi arab tili, 28 nafar yoki 9,0 foizi koreys tili, 27 nafar yoki 8,7 foizi fransuz tili, 14 nafar yoki 4,5 foizini turk tili, 12 nafar yoki 3,9 foiz ispan tilini, 8 nafar yoki 2,6 foizi yapon tili, 6 nafar yoki 1,9 foizi xitoy tili, 3 nafar yoki 0,9 foizi italyan tili va atigi 1 nafar ishtirokchi portugal tilini o'rganish istagi borligini bildirishgan bo'lsa, 8 nafar yoki 2,6 foiz ishtirokchilar til o'rganishni xoxlamaydigan respondentlarni tashkil etgan. Ushbu savol tahlili shuni ko'rsatadi, so'rvonomada ishtirok etganlarning aksariyat qismi hozirgi kunda jozibador hisoblangan jahon (ko'plab davlatlar davlat tili hisoblangan) tillari ingliz, rus, arab tillarini o'rganish istagi borligini bildirishgan.

So'rvonomada taqdim etilgan "Xorijiy tillarni (ingliz tili) o'rganish siz uchun qanday imkoniyatlar beradi, deb o'ylaysiz?" – degan 8-savolga 311 nafar respondentlarning 139 nafari yoki 44,8 foizi "Til bilish inson uchun juda ko'p imkoniyatlar beradi. Inson qancha ko'p tillarda muloqot qilishni bilsa, shuncha uning imkoniyatlari qolganlarga nisbatan bir pog'ona yuqoriq turadi. Shuning uchun xorijiy tillarni o'rganishni maqsad qilganman. Lekin shu bilan birga bir narsani unutmaslik kerakki boshqa tillarni o'rganib inson o'zligini yo'qotib qo'ymasligi lozim!", "Zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan boxabar bo'lish va ularni yoshlarga yetkazish, xorijiy yetuk mutaxassis olimlar bilan muloqotda bo'lish va ulardan ilm sirlarini o'rganish, ularning ko'magida ilmiy tadqiqot ishlarni olib borish va hamkorlikda ilmiy maqolalar nashr etish, xalqaro grant loyihibarida ishtirok etish!", "Juda ko'p imkoniyatlar beradi. Butun dunyo bo'ylab o'qishni davom ettirish uchun yo'l ochib beradi!", "Qo'shimcha kitob va boshqa materiallarni o'qish va bilimlarimni oshirish" kabi javoblarni berishgan va til o'rganish imkoniyatlari o'zlari uchun qanday imkoniyatlar berishi mumkinligini turlicha izohlashgan.

Shu bilan ushbu savolga 66 nafar yoki 21,3 foiz respondentlar "Dunyo xalqlarini birlashtirayotgan ingliz tili barcha dunyo mamlakatlari aholisi bilan muloqotga kirishish imkonini beradi!", "Xorijiy mamlakatlarga borganda, ushbu mamlakat urf-odatlariga tezroq moslashishga

imkon beradi!”, “Xorijiy davlatlarda sayohat qilish, boshqa davlatlar aholisi bilan aloqa qilish va boshqa davlatlarda ishlash uchun oson bo‘ladi!”, “Chet el madaniyati o‘z bilim va dunyoqarashni tubdan o‘zgartirish hamda chet el davlatlarida bemalol muloqot qilgan holda ishlash, o‘qish va dunyo kezish!” -deb javob berishgan va xorijiy tillarni o‘rganish o‘zlari uchun boshqa millat xalqlari bilan muloqot sifatida imkoniyat yaratuvchi kuchli vosita sifatida tushunishgan bo‘lsa, 34 nafar yoki 10,9 foiz “Yoshlarda anglo-sakson madaniyatini o‘rganish uchun imkoniyat yaratadi!”, “Bilimga ega bo‘lish va targ‘ib qilish, mutaxassislik fanlarini chuqur o‘rganish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi!”, “Xorij oliv o‘quv yurtlarida o‘qish va chet davlatda o‘z malakasini oshirib kelish ularning o‘qitish usullari o‘rganish va o‘ziga qaytib o‘qitishda yangi metodlarini qo‘llash!”. -deb javob berishgan hamda boshqa davlatlar madaniyati, urf-odatlarini o‘rganish uchun imkoniyat sifatida baholashgan.

Shu savolga respondentlarning 33 nafari yoki 10,9 foizi “Jahon bozoriga chiqish, o‘qish, yuqori maoshli ish faoliyatida bandlik, qulay shart-sharoit, kasbiy yuksalish va moliyaviy imkoniyatlarning ko‘payishi, ishslash doirsining kengayishi! – deb javob qaytargan, ya’ni xorijda ishslash va yashash uchun albatta til o‘rganish lozim ekanligining tub mohiyatini anglashga harakat qilishgan. Shuningdek, 38 nafar yoki 12,2 foiz respondent umuman savolga javob bermagan.

So‘rovnomada ko‘rsatilgan “Siz chet tillarini qaysi manbadan o‘rganasiz?” – deb nomlangan 11-savol bir necha qismlardan iborat bo‘lib ular: ijtimoiy tarmoqlar (You tube, Instagram, Telegram, WhatsApp, Viber); qo‘sish va OAVdagi reklamalar orqali; o‘quv markazlaridagi til kurslari orqali; davlat ta’lim muassasalari (maktab, litsey, kollej, texnikum); uy sharoitida oila a‘zolari orqali o‘rganish manbasi bilan bog‘liq savollar kiritilgan. Respondentlarning 187 nafari yoki 60,3 foizi o‘quv markazlaridagi til kurslari orqali; 65 nafari yoki 20,9 foizi xorijiy tillarni ijtimoiy tarmoqlar (You tube, Instagram, Telegram, WhatsApp, Viber); 31 nafari yoki 10,0 foizi davlat ta’lim muassasalari (maktab, litsey, kollej, texnikum); 21 nafari yoki 6,8 foizi uy sharoitida oila a‘zolari orqali; 6 nafari yoki 1,9 foizi qo‘sish va OAVdagi reklamalar orqali o‘rganishi haqida fikr bildirishgan.

“Siz chet tilini o‘rganganishni boshlaganiningizdan buyon xorijiy hayot tarziga qiziqishingiz qay darajada o‘zgardi?” 12-savoliga 79 nafar yoki 25,4 foiz ishtirokchilar “Ijobiy tomonga o‘zgardi” deb javob berishgan bo‘lsa, 210 nafar 68,0 foizi “Yaxshi va o‘rtacha o‘zgardi” deb javob bergen bo‘lsa, 21 nafar ishtirokchi 6,7 foizi “o‘zgarmadi” deb javob bergen. Demak, ushbu savol tahlili shuni ko‘rsatadiki, chet tilini o‘rganish respondentlarning xorijiy hayot tarziga qiziqishlarini ijobjiy tomonga o‘zgartirganligini tasdiqlaganliklarini ko‘rish mumkin.

“Kundalik hayotingizda (xizmat ko‘rsatish muassasalari, reklama yorliqlari) da inglizcha so‘zlarga qanchalik tez-tez duch kelasiz?” – deb nomlangan savolga 272 nafar respondent yoki 88,0 foizi “deyarli xar kuni kelishi”, 38 nafari yoki 12,0 foizi esa “duch kelmaganligi” haqida o‘z fikrlarini bildirishgan. Bundan, o‘z navbatida, aholi hayot tarziga xorijiy tillarga oid atamalarni kirib kelganligi va inson hayotining ajralmas qismiga aylanib borayotganligini ko‘rish mumkin.

So‘rovnomada berilgan “Yashash hududingiz va, umuman, mamlakatimizda mavjud bo‘lgan obyektlar (ta’lim muassasalari, savdo do‘konlari, dorixonalar, tibbiy xizmat ko‘rsatish muassasalari, maishiy xizmat ko‘rsatish muassasalari (sartaroshxona, salon va h.k.) nomining xorijiy lashib borishiga munosabatingiz qanday (izohlang)?” deyilgan 14-savolga respondentlardan asosan ikki xil javob olingan, ya’ni so‘ralganlarning 161 nafari yoki 51,9 foizi “ijobjiy”, 149 nafari yoki 48,1 foizi “salbiy” deb baholashgan.

“Sizningcha chet tili (ingliz, nemis, fransuz, koreys tili)ni umumiyl o‘rta ta’lim maktablarida o‘rganish samaraliroqmi yoki o‘quv kurslaridami?” deb nomlangan 15 savolga respondentlarning 223 nafari yoki 71,9 foizi o‘quv kurslarida deb javob berishgan bo‘lsa, 87 nafari yoki 28,0 foizi o‘rta ta’lim maktablarida o‘rganish samarali deb deb javob bergen.

“Siz chet tili kurslarida tahsil olayotgan yoshlarda (chet tilini o‘rganayotgan bo‘lsangiz, o‘zingizda) dunyoqarash, kiyinish madaniyati, oilaga bo‘lgan munosabatda qanday o‘zgarishlar yuz berayotganini kuzatgansiz?” – deb nomlangan 16 savolga respondentlarning javoblari o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bundan 178 nafar yoki 57,4 foiz ishtirokchilar “Dunyo globallashib bormoqda, til o‘rganishi natijasida ko‘p o‘zgarishlar yuz beradi chunki, dunyoqarashi kengayadi, ko‘pincha xorijiy tillarni o‘rganayotgan yoshlar o’sha davlat madaniyatiga qiziqib o‘z fe’l atvorida yaxshi va ba’zi yomon odatlar shakllanib qolmoqda”, “Ular o‘zlarini ancha erkin tutadilar, dunyoqarash kengayadi hayotga o‘zgacha qarash boshlanadi” degan xulosaga kelganligini kuzatish mumkin. 70 nafar yoki 22,6 foiz respondentlar “Tezda o‘zgarib qolmaydi. Birinchi navbatda insonning o‘ziga bog‘liq, ammo o‘quv kurslarida o‘qiydigan yoshlarni kiyinish madaniyati xorijiy lashib bormoqda baribir biz o‘zbek millatiga mansubmiz nima bo‘lganda ham o‘zimizni urf-odatlar asosida kiyinganimiz ma’quil!” – deb javob berib, o‘zlarining milliy-etnik xususiyatlariga sodiqligini bildirishgan bo‘lsa. 74 nafar yoki 23,9

foiz respondentlar "Kiyinish va axloqi o'zgarib qolgani, shuningdek yoshlarda kibr, o'ziga o'ta yuqori baho berish kuzatilganligi, hamda g'arb madaniyatining kirib borishi yoshlarning kiyinish uslubiga oz bo'sada ta'sir etganligini" alohida ta'kidlashgan. So'rovnomadagi "Kelajakda yashash hududingiz, ta'lismuassasalarida, ish joylarida chet tilini bilish darajasi qay darajada bo'ladi deb hisoblaysiz?"-deb nomlangan savolga respondentlarning deyarli 87,8 foizi yoki 271 nafar respondent til bilish darajasi kelajakda keskin oshib borishini bildirishgan bo'lsa, 12,2 foiz yoki 38 nafar respondentlar til bilish darajasini o'zgarishsiz qolishi mumkin ekanligi haqida fikr bildirishgan. Siz respublikamizning qaysi viloyatlarini (poytaxtdan tashqari) chet tili (ingлиз, немис, франсуз, көрәй тили...) ni bilish darajasi yuqori deb hisoblaysiz va bunga sabab nima deb o'ylaysiz? deb nomlangan savolga respondentlar respublikaning poytaxt shahar Toshkent shahar imkoniyatini eng yuqori deb baholashgan. Shu bilan birga, Samarqand, Farg'ona, Namangan, Buxoro, Navoiy viloyatlarining til bilish muhitini yuqori degan xulosa kelishgan bo'lsa, aksincha, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarining til bilish muhitini bir muncha past deb baholashgan.

XULOSA

Tadqiqot obyekti uchun tanlab olingen hududlar aholisining etnolingvistik vaziyati va xorijiy tillarni o'rganishi bilan bog'liq fikrlarni sotsiologik tadqiqot usullari orqali o'rganish natijalari tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, aholining til o'rganishi natijasida quydagi muammolarini hal etish lozim:

1. Aholining, ayniqsa, yoshlarni rivojlangan davlatlar madaniyati va urf-odatlarini o'rganish istaklarining ortishi hamda taraqqiy etgan xorijiy mamlakatlarga ishlash va ta'lism olish uchun borishini kelajakda yanada ko'payib borish jarayoni aniqlandi.

2. Aholining xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan istaklari, shu jumladan, arab, ingliz, nemis, rus, fransuz koreys tillarni o'rganishga bo'lgan ehtiyojlarini yanada ortib borishi aniqlandi.

3. Aholi tarkibidan til bilish istaklari asosan yoshlar o'rtasida yuqoriligi aniqlandi. Shuningdek, etnik stereotip – turli etnik jamoalar vakillariga xos bo'lgan axloqiy, aqliy, madaniy va boshqa fazilatlar haqidagi nisbatan barqaror g'oyalar hamda etnik madaniyat – etnik o'ziga xoslikka ega bo'lgan va etnik farqlovchi funksiyalarni bajaradigan madaniy elementlar va tuzilmalar yig'indisi o'rganildi.

4. Etnik jarayonlar – etnik guruhning tarkibiy xususiyatlarida (madaniyat, til, urf-odatlar va boshqalar) doimiy ravishda sodir bo'ladigan o'zgarishlarni hisobga olib, til o'rganish va o'qitish borasida dunyoning yetuk olimlari tajribasida samarali natija berib kelayotgan o'qitish metodikalari, shuningdek, xorijiy tillarni o'qitish sohasida "bog'cha – mактаб – олий та'lим ташкiloti – корхона" tamoyilidagi uzuksiz ta'lum zanjirini joriy etish, aholining barcha qatlamlariga mos bo'lgan tilni o'rganish bo'yicha uslubiyot va tavsiyalarni ishlab chiqish tavsiya etiladi.

5. Televideeniye, shu jumladan, mahalliy telekanallar orqali bolalar va o'smirlarni xorijiy tillarga o'rgatish bo'yicha ko'rsatuvlar tayyorlash hamda ularni translyatsiya qilish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyati, jahon ilmi va texnikasiga bag'ishlangan ilmiy-ommabop xorijiy badiiy hamda multiplikatsiyaviy filmlarni o'zbek tilidagi subtitr yordamida, muntazam ko'rsatib borishni amalga oshirish masalasiga e'tibor berish lozim.

6. Poliglot (ko'p tilni biladigan) yoshlar bilan ishlash, poliglot yoshlar o'rtasida musobaqa va tadbirlar uyushtirish, ularni rag'batlanirishga katta e'tibor qaratish.

Kelajakda yuqorida keltirilgan muammolarni bartaraf etishda quydagilarga alohida e'tibor qaratish zarur deb hisoblaymiz, ya'ni:

❖ aholi orasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish va ularni mukammal o'zlashtirish uchun zarur sharoitlar yaratish, xorijiy tillarni o'qitishning xalqaro tan olingen dastur va darsliklari ta'luming barcha bosqichlarida joriy etilishini muvofiqlashtirish hamda o'qituvchilarda zamonaviy o'qitish ko'nikmalarini rivojlantirish;

❖ hududlar, tarmoqlar va ta'lum muassasalarining xorijiy tillarni o'zlashtirgan mutaxassislariga ehtiyojlarini tahlil qilish natijalari asosida talab yuqori bo'lgan xorijiy tillarni o'qitishni tashkillashtirish;

❖ xorijiy tillarni o'qitish sohasida «bog'cha-maktab-oliy ta'lim tashkiloti-korxona» tamoyilidagi uzuksiz ta'lum zanjirini joriy etish maqsadida aholining barcha qatlamlariga mos bo'lgan tilni o'rganish bo'yicha uslubiyot va tavsiyalarni ishlab chiqishni muvofiqlashtirish;

❖ xorijiy tillarni puxta o'zlashtirish, tilning asosiy ko'nikmalarini shakllantirish uchun videorolik, o'yin, ko'ngilochar ko'rsatuv, filmlar va boshqa o'rgatuvchi kontent yaratilishini tashkil etish;

❖ davlat tilidan xorijiy tillarga va xorijiy tillardan davlat tiliga professional tarjima qilish uslubiyotlarini yaratish hamda ushbu yo'nalishda mutaxassislarning malakasini oshirishda ko'maklashish;

❖ xorijiy tillarni o'rgatish jarayonida milliy o'zlikni unutmaslik, milliy va mahalliy qadriyatlarga hurmatni saqlab qolish kabi psixologik himoya usullariga e'tibor qaratish, til o'rganish uchun tavsiya etilayotgan o'quv qo'llanmalarining madaniy ta'sirini baholab borish;

❖ hududlar, tarmoqlar, davlat organlari va ta'lim tashkilotlari kesimida xorijiy tillarni bilish reytingini yuritish, xorijiy tillarni o'rganishni yanada ommalashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Olib borilgan tadqiqotlardan shunday xulosa qilish mumkinki, yoshlarni xorijiy tillarni o'rganishi kelajakda, nafaqat respublikada xorijiy tillarni o'qitishni ommalashtiradi, balki xorijiy tillarda tahsil olish va o'qitishda duch keladigan har qanday muammolarni hal etib, dunyo miqyosida vatanimiz ravnaqini ko'rsata oladigan ilm-fan, ta'lim va taraqqiyot nufuzini ko'tarishga o'zining salmoqli hissasini qo'shadigan yoshlar tarbiyalanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Чет тилларни ўрганиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 10.12.2012 йилдаги ПҚ-1875-сон. <https://lex.uz/docs/2126032>
- Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. 20.12.2022. URL: <https://president.uz/uz/lists/view/5774>
- Девятко И. Ф. Методы социологического исследования.— Екатеринбург: Изд-во Урал, унта, 1998.— 208 с. ISBN 5—7525—0611—5
- Казахстан опередил ряд стран по общему баллу IELTS За последние три года республика также стала лучшей в ЦА по TOEFL IBT.URL: 05.04.2022 Подробнее на Kursiv Media: <https://kz.kursiv.media/2022-04-05/kazahstan-operedil-ryad-stran-po-obshhemu-ballu-ielts/>
- Ўзбекистон Республикасида хорижий тилларни ўрганишни оммалаштириш фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари Тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 19.05.2021 йилдаги ПҚ-5117-сон. <https://lex.uz/docs/5426736>
- Элмурадова Г. Хорижий тилларни ўрганишни оммалаштириш заруратми ёки эҳтиёж? URL: 09.09.2021.<https://yuz.uz/news/xorijiy-tillarni-organishni-ommalashtirish-zaruratmi-yoki-ehtiyoj>
- Толстой Н. И. Толстая С. М. Славянская этнолингвистика: вопросы теории. — М.: Институт славяноведения РАН, 2013. — 240 с. (Материалы ко Второму Всероссийскому совещанию славистов 5–6 ноября 2013 г.) ISBN 978-5-7576-0290-5
- Комарова З. И. Методология, метод, методика и технология научных исследований в лингвистике: учебное пособие. – Екатеринбург: Изд-во УрФУ, 2012. – 818 с. (электронная версия). ISBN 978-5-8295-0158-7
- Аллаева Ҳ.Р. Қуйи Сурхондарё микротопонимиясининг лингвistik тадқики. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor URL:<https://cyberleninka.ru/article/n/uyi-surhondaryo-mikrotoponimiyasining-lingistik-tad-i-i>
- Абдуллаев А. А.Жой номларининг этномаданий тадқики (Тошкент ареали мисолида) Academic Research in Educational Sciences Volume 3 |Issue 6 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 | SJIF: 5,7 | UIF: 6 URL:<https://cyberleninka.ru/article/n/zhoy-nomlarining-etnomadaniy-tad-i-i-toshkent-areali-misolida>
- Норқулов Д.Т. Тил хусусиятлари ва этнолингвистик ўзгаришлари. Ўзбекистон араблари. ASEAN Journal on Science & Technology for Development Vol 39, No 4, 2022, 578-587 10.5281/zenodo.7321767 URL:<http://repository.tma.uz/xmlui/bitstream/handle/1/5084/578-87.pdf?sequence=1&isAllowed=y>
- Зайрова К.М. Этнокультурная характеристика наименований одежды и обуви в каракалпакском языке. Вестник Челябинского государственного университета, (7 (465)), 27-36. URL:<http://journals.csu.ru/index.php/BulletinCSU/article/view/1507/1206>
- Jumakhanov Sh. Z., Toshpulatov A. M. "The Impact of Natural Conditions on Territorial Characteristics of Human Behavior: Geographical Determinism, Positivism and Environmentalism." *Electronic Research Journal of Social Sciences and Humanities* 1 (2019): 43-149. www.eresearchjournal.com
- Jumakhanov Sh. Z., Zoirjanov Sh Sh., Jaloldinova M.Sh. Notions about the national traditions of the people of the oasis and the valley. *Science Journal. Researcher* [2022; N14(3): 53-59]. ISSN1553-9865 (print); ISSN 2163-8950 (online) <http://www.sciencepub.net/researcher.8.doi:10.7537/marsrsj140322.08>
- Кузиев У.Я About sociolects and their place in glossaries (in example uzbek language and dictionaries) Scientific Cooperation Center "Interactive plus" <https://interactive-plus.ru/e-articles/424/Action424-463770.pdf>
- MIRZAAXMEDOV, X. S., & AKABOYEV, I. Z. O. G. L. (2021). Mapping the population of Namangan region using modern GIS technologies. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, 12, 1070-1074.